



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
TUPROQQAL’A TUMANI HOKIMINING
QARORI**

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2022 - yil 31 - oktabr

252-12-218-Q/22

Tuproqqal'a tumani hokimligi

**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan
va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha
olmaydigan shaxslarni 2023-yilda ishga joylashtirish
uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va
zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil 9-son, 320-modda) Qonunning 6-moddasi, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 11.12.2017-yil 09/17/965/0393-son)da talablari ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam soni belgilanadigan korxonalar, muassasalar va

tashkilotlardagi ish o‘rinlari soni 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Shu jumladan:

yolg‘iz ota, yolgiz ona va 14 yoshgacha nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun 18,0 foiz (34 kishi);

ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun 28,6 foiz (54 kishi);

muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 6,3 foiz (12 kishi);

nogironlar uchun 45,5 foiz (86 kishi);

Aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun 0,5 foiz (1 kishi);

jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun 0,5 foiz (1 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 0,5 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin.

Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolgiz ota, yolgiz ona va ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘ligining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda) beradigan ish o‘rinlari;

Aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida ro‘yxatda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun maxsus malaka talab qilinmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari muayyan kasb-hunarga va malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa maxsus malakani talab qilmaydigan, shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlar uchun ish o‘rinlari tashkil qilinsin.

3. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam soni belgilangan va zaxiraga qo‘yilgan kasblar va lavozimlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ushbu qarorda ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (K.Yaqubov) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘i hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-coH, 31.05.2019 yil) buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng ko‘p sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash” to‘g‘risidagi normani 2-ilovada ko‘rsatilgan barcha korxona, tashkilot va muassasalar e’tiboriga yetkazsin va tushuntirish ishlarini olib borsin.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul

qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlik belgilanishi ko'rsatib o'tilsin.

7. Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi besh ish kunlik muddatda ushbu qarorni 2-ilovada ko'rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalar e'tiboriga yetkazsin.

8. Ushbu qaror 2023-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi. Ushbu qaror rasmiy ravishda e'lon qilinsin.

9. Tuman hokimligi bosh yuriskonsulti (M.Rajabov):

mazkur qarorni tuman hokimligining **tuproqqalatumani.uz** rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin;

Tuproqqal'a tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun va mohiyati yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borsin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i S.Sultonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Salayev

Tuproqqal'a tuman hokimining
2022 yil 31 oktabrdagi
252-12-218-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Tuman hududida joylashgan korxona va muassasalarda 2022-yil uchun kvota
ish o'rinlarini belgilash kerak bo'lgan eng kam sonini va ularga qo'yiladigan
talablarni o'rganish maxsus komissiyasi**

Tarkibi:

1. S.Sultonov - tuman hokimining birinchi o'rinbosari, komissiya raisi
2. K.Yakubov - tuman ABKM direktori, komissiya raisi o'rinbosari
3. Z.Ro'zmetov - tuman hokimining o'rinbosari, komissiya a'zosi
4. M.Satimov - tuman statistika bo'limi boshlig'i, komissiya a'zosi
5. Z.Allanazarov - tuman ABKM ishsizlarni hisobga olish, ishga joylashtirish sho'basi mudiri, komissiya a'zosi

Tuproqqal'a tuman hokimining
2022 yil 31 oktabrdagi
252-12-218-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Tuproqqal'a tumanida 2023-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan
shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish ro'yxati**

№	Tashkilot nomi	Jami ishlovchilar soni	Jami kvota belgilangan ish o'rinlari 2023- yil	шу жумладан						
				O'n to'rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz ota va ko'p bolalari ota-onalar uchun	Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun	Nogironlar	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o'tayotgan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy rusdagi majburlov choralari qo'llanishidan ozod qilingan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlari
1	Tuman sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi	47	3		1	1	1			
2	Tuman tibbiyot birlashmasi	741	52	10	20		22			
3	Xalq ta'limi bo'limi	37	2		1		1			
4	1-son maktab	81	5	2	1		2			
5	2-son maktab	114	8		3	1	4			
6	3-son maktab	34	2		1		1			
7	4-son maktab	96	7	1	1	1	3			1
8	6-son maktab	47	3		1	1	1			
9	7-son maktab	54	4	1	1		2			

10	8-son maktab	79	4	1	1		2			
11	9-son maktab	70	4		1	1	2			
12	10-son maktab	74	4	1	1		2			
13	11-son maktab	96	5		1		3	1		
14	12-son maktab	37	2		1		1			
15	13-son maktab	29	3		1	1	1			
16	14-son maktab	33	3	1	1		1			
17	15-son maktab	34	2	1			1			
18	16-son maktab	40	3		2		1			
19	17-son maktab	62	4		1	1	2			
20	18-son maktab	66	4		1	1	2			
21	19-son maktab	77	4	1	1		2			
22	20-son maktab	54	4		1	1	2			
23	1-son ixtisoslashtirilgan maktab internati	41	3	1	1		1			
24	1-son maktabgacha ta'lim muassasasi	25	2	1			1			
25	2-son maktabgacha ta'lim muassasasi	37	2		1		1			
26	3-son maktabgacha ta'lim muassasasi	43	2	1			1			
27	4-son maktabgacha ta'lim muassasasi	62	4	1	1		2			
28	5-son maktabgacha ta'lim muassasasi	61	4	1	1		2			
29	6-son maktabgacha ta'lim muassasasi	35	2	1			1			
30	7-son maktabgacha ta'lim muassasasi	62	4	1	1		2			
31	8-son maktabgacha ta'lim muassasasi	33	2	1			1			
32	9-son maktabgacha ta'lim muassasasi	40	3	1	1		1			
33	10-son maktabgacha ta'lim muassasasi	43	3	1	1		1			

34	11-son maktabgacha ta'lim muassasasi	40	3	1	1		1			
35	12-son maktabgacha ta'lim muassasasi	22	2	1			1			
36	13-son maktabgacha ta'lim muassasasi	25	1				1			
37	14-son maktabgacha ta'lim muassasasi	29	2	1			1			
38	15-son maktabgacha ta'lim muassasasi	25	2	1			1			
39	Obodonlashtirish boshqarmasi	96	6	1		1	3		1	
40	Yo'llardan foydalanish unitar korxonasi	94	5		1	1	3			
41	1-son bolalar va o'smirlar sport maktabi	46	3		1	1	1			
42	6-son Bolalar musiqa maktabi	31	2		1		1			
Jami:		2892	189	34	54	12	86	1	1	1

Tuproqqal'a tuman hokimining
2022 yil 31 oktabrdagi
252-12-218-Q/22-son qaroriga
3-ilova

Tuproqqal'a tumanidagi Korxona va tashkilotlar hamda muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar

№	Korxona va tashkilot nomi	Ishlovchilar soni	Band kilingan ish o'rne	Kasblar va lavozimlar
1	Tuman sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi	47	3	shifokor, hamshira, farrosh
2	Tuman tibbiyot birlashmasi	741	52	Shiokor
3	Xalq ta'limi bo'limi	37	2	UASh, shifokor, hamshira, farrosh, oshpaz, kichik tibbiy xodim va qoravul
4	1-son maktab	81	5	Metodist, qoravul
5	2-son maktab	114	8	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
6	3-son maktab	34	2	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
7	4-son maktab	96	7	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
8	6-son maktab	47	3	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
9	7-son maktab	54	4	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
10	8-son maktab	79	4	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
11	9-son maktab	70	4	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
12	10-son maktab	74	4	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
13	11-son maktab	96	5	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
14	12-son maktab	37	2	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
15	13-son maktab	29	3	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
16	14-son maktab	33	3	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
17	15-son maktab	34	2	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
18	16-son maktab	40	3	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
19	17-son maktab	62	4	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh

20	18-son maktab	66	4	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
21	19-son maktab	77	4	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
22	20-son maktab	54	4	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
23	1-son ixtisoslashtirilgan maktab internati	41	3	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
24	1-son maktabgacha ta'lim muassasasi	25	2	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
25	2-son maktabgacha ta'lim muassasasi	37	2	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
26	3-son maktabgacha ta'lim muassasasi	43	2	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
27	4-son maktabgacha ta'lim muassasasi	62	4	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
28	5-son maktabgacha ta'lim muassasasi	61	4	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
29	6-son maktabgacha ta'lim muassasasi	35	2	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
30	7-son maktabgacha ta'lim muassasasi	62	4	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
31	8-son maktabgacha ta'lim muassasasi	33	2	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
32	9-son maktabgacha ta'lim muassasasi	40	3	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
33	10-son maktabgacha ta'lim muassasasi	43	3	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
34	11-son maktabgacha ta'lim muassasasi	40	3	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
35	12-son maktabgacha ta'lim muassasasi	22	2	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
36	13-son maktabgacha ta'lim muassasasi	25	1	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
37	14-son maktabgacha ta'lim muassasasi	29	2	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
38	15-son maktabgacha ta'lim muassasasi	25	2	Metodist, tarbiyachi, qoravul va farrosh
39	Obodonlashtirish boshqarmasi	96	6	Ishchi, obodonlashtiruvchi
40	Yo'llardan foydalanish unitar korxonasi	94	5	Mutaxassis va ishchi
41	1-son bolalar va o'smirlar sport maktabi	46	3	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
42	6-son Bolalar musiqa maktabi	31	2	O'qituvchi, hovlibon, qoravul va farrosh
	JAMI:	2892	189	x

